

**JIGAR SIRROZI - KASALLIK BELGILARI, KELIB CHIQISH SABABLARI
DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH**

Satibaldiyeva Zebo Shuxratullayevna
Alisherova Mahzunabonu Shuhratjon qizi,

Qo'qon universiteti andijon filiali

“Tibbiy biologiya va jamoat salomatligi”

Qo'qon universiteti Andijon filiali talabasi,

[Xat yozish uchun: mahzunaalisherova1@gmail.com],

[Xat yozish uchun: zebosatibaldiyeva@gmail.com],

Anntatsiya

Ushbu maqolada jigar va uning inson organizmidagi ahamiyati, tuzilishi hamda asosiy fiziologik vazifalari haqida ma'lumot berilgan. Jigar sirrozi kasalligining kelib chiqish sabablari, rivojlanish bosqichlari, klinik belgilari, tashxislash va davolash usullari keng yoritilgan. Shuningdek, kasallikning oldini olish bo'yicha tavsiyalar, sog'lom turmush tarzining ahamiyati va jigar transplantatsiyasining roli haqida ham so'z yuritilgan.

Abstract

This article provides detailed information about the liver, its structure, and its vital role in the human body. It discusses the causes, stages, clinical symptoms, diagnosis, and treatment methods of liver cirrhosis. In addition, it highlights preventive measures, the importance of a healthy lifestyle, and the role of liver transplantation in managing liver failure.

Kalit so'zlar

Jigar, jigar sirrozi, gepatit, gepatosit, jigar yetishmovchiligi, transplantatsiya, profilaktika, sog'lom turmush tarzi.

Keywords

Liver, liver cirrhosis, hepatitis, hepatocytes, liver failure, transplantation, prevention, healthy lifestyle.

Kirish. Jigar serrozi - dunyodagi 35-60 yoshdagi insonlar o'limining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. 2015-yilda virusli gepatitdan 1,34 million o'lim qayd etildi, bu esa sil va odamning immunitet tanqisligi virusidan vafot etganlar soni bilan taqqoslanadi. Ammo sil va OIV bilan kasallanish kamaygan bo'lsa, gepatitdan vafot etganlar soni ko'paymoqda. 2015-yilda 1,75 millionga yaqin odam gepatit C infeksiyasini yuqtirgan va C gepatitiga chalinganlarning umumiy soni 71 million kishiga yetgan. [1]

Odamda jigar — organizmdagi eng katta bez (vazni 1200–2200 g). Qorin bo'shlig'ida, diafragmaning tagida, o'ng qovurg'alar va qisman chap qovurg'alar ostida yotadi. Rangi qizg'ish-qo'ng'ir, kattaroq o'ng bo'lagi bilan kichikroq chap bo'lagi bor. O'rta qismining pastki yuzasidagi ko'ndalang chuqurcha jigar darvozasi yoki qopqasi deb ataladi. Shu joydan jigarga arteriya, darvoza venasi, nervlar kiradi va jigarning o't yo'li, jigar venasi chiqadi. Bu o't yo'li o't pufagidan chiqqan yo'lga qo'shilib, o'n ikki barmoqli ichakka quyiladigan umumiy o't yo'lini hosil qiladi. Uzoq muddatda jigar funksiyasining yo'qligini qanday qoplash mumkinligi ma'lum emas, ammo qisqa muddatda jigar dializ usullaridan foydalanish mumkin. Jigar yo'qligida uzoq muddatli almashtirishni ta'minlash uchun sun'iy jigar ishlab chiqilmagan. 2018-yildan boshlab, jigar transplantatsiyasi to'liq jigar yetishmovchiligi uchun yagona imkoniyat bo'lib qolmoqda. Jigar sirrozi - jigarning surunkali rivojlanib boradigan kasalligi; bunda jigar to'qimasi yallig'lanib, uning bir qismi biriktiruvchi to'qima bilan almashinadi. Jigarning o'tkir yallig'lanishi — gepatitda, uning B, C, D shakllarida, o'tkir gepatit surunkali gepatitga aylanayotganda, bezgak, sil, zaxm, brutsellyoz kabi yuqumli kasalliklarda, o't pufagi va o't yo'llarining surunkali yallig'lanishida, turli kimyoviy moddalardan muntazam zaharlanishda, shuningdek, alkogolizmga va boshqa sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Jigar sirrozi — sekin rivojlanadigan surunkali kasallik. Jigar sirrozi turlicha namoyon bo'ladi va u xastalikning qaysi shaklida kechishi hamda davriga bog'liq; tekshirganda jigarning qattiqlashgani va funksiyasining buzilganligiga qaramay, kishi uzoq vaqt hech qanday xastalik alomatini sezmay yurishi mumkin. Kasallik zo'rayganda bemor darmonsizlanadi, ozib ketadi, ishtahadan qoladi, kekiradi, ko'ngli ayniydi, ba'zan qusadi, ichi ketadi yoki qotadi, qorni dam bo'ladi, tana xarorati ko'tariladi, qorin bo'shlig'ida suyuqlik to'planishi natijasida u ko'tariladi (istisqo), burni qonaydi, badani qichishadi, ba'zan sarg'ayadi; kamqonlik avjiga chiqadi; jigari va ayniqsa talog'i kattalashadi va qattiqlashadi. Davoni vrach tayinlaydi. Jigar sirrozi uzoq vaqt davolanadi, kasallik zo'rayganda bemorni darhol kasalxonaga yotqizish kerak. Parhezga qat'iy rioya qilishning ahamiyati katta. Bemorga, asosan, yengil hazm bo'ladigan, qand, oqsil va vitaminlar (ayniqsa, C vitamin va B gruppaga) boy sutli va o'simlik ovqatlar beriladi. Tvorog (oson hazm bo'ladigan oqsillarga ega), yog'siz go'sht, baliq, shuningdek, ozgina sariyog' bilan qaymoq yoki smetana iste'mol qilish mumkin; spirtli ichimliklar ichish qat'iy taqiqlanadi. Jigar sirrozining avj olishiga yo'l qo'ymaydigan dorilar buyuriladi. Jigar sirrozini davolashda avvalo unga sabab bo'ladigan omillarni bartaraf etish muhim. Jigar sirroziga olib kelgan infeksiya aniqlansa, uni tugatish choralari ko'riladi. Jigar sirrozining oldini olish uchun mehnat va turmush sharoitini sog'lomlashtirish, alkogolizmga qarshi kurash olib borish kerak[2].

Jigar sirrozining kelib chiqish sabablari asosan ko'p yillar davomida spirtli ichimliklarni muntazam ravishda ichish, uzoq vaqt davomida gepatit bo'lib yurish,

xususan gepatit B yoki gepatit C bilan kasallanish, alkogolsiz steatogepatit bilan kasallanish, shuningdek, o't yo'llariga ta'sir qiladigan muammo (masalan, birlamchi biliar xolangitlar) yoki immunitet tizimi (masalan, autoimmun gepatit) tufayli paydo bo'ladi. Ba'zi irsiy kasalliklar va ba'zi dori-darmonlarni uzoq muddat qo'llash natijasida yuzaga kelishi mumkin.[3]

Jigar serrozi bir necha bosqichlarda boradi, har bir bosqich o'ziga xos klinik belgilarga ega. Uning qanchalik rivojlanganligi, bemorning ahvoli, terapiya usullari quyidagi bosqichlar yordamida o'rganiladi.

1. Kompensatsiyalangan faza bosqichida kasallik o'zini hech qanday namoyon qilmaydi. Patologiya bu bosqichda tashxislansa, unda yuzaga kelgan jigar yetishmovchiligini dori vositalari yordamida kompensatsiyalash (o'rnini qoplash) mumkin. Bemor o'zida hech qanday belgilarni sezmasa ham, a'zoda o'zgarishlar boshlanib bo'lgan bo'ladi. Bu fazada jigar hujayralari – gepatositlar nekrozga (o'limga) uchrab, ularning o'rniga fibroz chandiq to'qimasi hosil bo'la boshlaydi. Agar o'z vaqtida davolanish boshlanmasa, tez orada a'zo o'z funksiyalarini to'liq bajara olmay qoladi. Bu vaqtda laboratoriya tahlillari billuribin darajasi ortgani, protrombin indeksi esa 60 gacha pasayganini ko'rsatadi. Umuman olganda bemor o'zini sog'lom his qiladi, faqat ba'zida o'ng qovurg'a ostidagi og'riq bezovta qilib turadi.

2. Subkompensatsiyalangan faza bosqichida kasallikning alomatlari yaqqolroq sezila boshlaydi. Bu esa nobud bo'lgan gepatotsitlar sonining ortganligidan dalolat beradi. Ushbu bosqichda bemorda zaiflik, apatiya (befarqlik), mehnat qobiliyatining pasayishi, ko'ngil aynish, vazn yo'qotish kabi belgilar kuzatiladi. Erkaklarda ginekomastiyaning birinchi belgilari qayd qilinishi mumkin. Laboratoriya ko'rsatkichlarida albumin darajasi pasayganligi va protrombin indeksi 40 ga yetishi qayd qilinadi. Davolash o'z vaqtida boshlansa, kasallikni kompensatsiyalangan bosqichgacha yetkazish mumkin.

3. Dekompensatsiyalangan faza bosqichida normal ishlayotgan gepatositlar soni o'ta kamayadi. Bu jigar yetishmovchiligi rivojlanishi va kasallik belgilari ortishiga olib keladi. Bemor terisi sariq tusga kiradi, qorinda og'riqlar sezila boshlaydi. Ushbu bosqichda ko'pincha astit (qorin bo'shlig'ida suyuqlik to'planishi) rivojlanadi. Laboratoriya tahlilida albuminlar darajasi va protrombin indeksi juda ham pasayib ketganligi aniqlanadi. Davolanish kam samara beradi va asoratlar xavfi mavjud (xususan jigar komasi, saratoni, ichki qon ketish, peritonit va pnevmoniya). Bemor shifokor nazorati ostida stansionarda bo'lishi kerak.

4. Xastalikning terminal faza ya'ni yakuniy bosqichida a'zo o'ta jiddiy shikastlanganligi tufayli o'z vazifasini bajara olmay qoladi. Bemor kuchli og'riqlardan aziyat chekadi, shu tufayli unga kuchli og'riq qoldiruvchi vositalar tayinlanadi. Ushbu bosqichda patologiya rivojlanishini to'xtatishning imkoniyati yo'q. Prognoz, odatda,

salbiy. Yangi jigar ko'chirib o'tkazilmasa kasallikning og'ir asoratlari tufayli o'lim sodir bo'ladi. [4]

An'anaviy davolash asosan jigar hujayralarini shikastlanishdan himoyalash, safro ajralishini rag'batlantirish, modda almashinuvi buzilishlarini tuzatish uchun farmatsevtik vositalarni qo'llashdan iborat. Shubhasiz, bu bemorning ahvolini yaxshilaydi, ammo kasallikning rivojlanishini to'xtata olmaydi. Agar yuqorida ko'rsatilgan muolajalar yordam qilmasa, jigar ko'chirib o'tkazish (transplantatsiya) amalga oshiriladi. Jigar serrozi profilaktik chora-tadbirlari sirasiga gepatit bilan kasallanishni oldini olishga qaratilgan har qanday yondashuvlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi: gepatitni malakali gepatolog yordamida davolash va belgilangan terapevtik tartibga rioya qilish, dori-darmonlarni o'zboshimchalik bilan qabul qilishni cheklash, zararli sanoat korxonalarida ishlashdan qochish. Shifokor tavsiyasiga ko'ra vitamin va mineral komplekslar qabul qilish, yog'li, qovurilgan va achchiq ta'mli, konservalangan va yarim tayyor mahsulotlarini iste'mol qilmaslik, yomon odatlardan, ayniqsa, alkogolli ichimliklarni suiste'mol qilishdan bosh tortish, har yili ovqat hazm qilish tizimining endoskopik tekshiruvdan o'tish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish va shaxsiy gigiyena vositalaridan foydalanish, virusli gepatit B ga qarshi vaksina olish ham tavsiya etiladi. [5]

Xulosa. Jigar sirrozi — jiddiy surunkali kasallik bo'lib, u jigar to'qimalarining qayta tiklanmas darajada shikastlanishiga olib keladi. Kasallik asta-sekin rivojlanadi va dastlabki bosqichlarda deyarli alomatsiz kechadi, bu esa uni kech aniqlanish xavfini oshiradi. O'z vaqtida tashxis qo'yish, sabablovchi omillarni bartaraf etish hamda parhez va dori vositalariga qat'iy rioya etish jigar faoliyatini ma'lum darajada tiklashga yordam beradi.

Kasallikning og'ir bosqichlarida yagona samarali usul — jigar transplantatsiyasidir. Shu sababli jigar sirrozining oldini olish, virusli gepatitlardan himoyalash, spirtli ichimliklardan butunlay voz kechish, sog'lom ovqatlanish va gigiyenaga rioya qilish inson salomatligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusufjonov , J. and Jalilova, S. 2025. JIGAR SERROZI KASSALIGI KELIB CHIQISH SABABARI VA PROFILAKTIKASI. Universal xalqaro ilmiy jurnal. 2, 4.5 (Jun. 2025), 789–791
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Ahadovna Q. F., Eshmirzayevich M. E. Jigar Xastaliklari Sabablari, Alomatlari, Tashxislash Va Davolash, Oldini Olish //Journal Of International Scientific Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 487-492.

4. Ushbu maqolada O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.

5. Eshmamatovna J. N. Et Al. Jigar Serrozi Kasalligi Va Kasallik Alomatlari //Yangi O 'zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnal. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 119-130.